71. Umarov Sh. Burxoniddin Marg'inoniy. - T.: Mavarounnahr. Tafakkur. 2010.
72. Qobilov N. Abu Nasr Forobiy. - T.: Tafakkur. 2010.
73. Jo'raev O., Muhiddinov A. Mahmud Zamaxshariy. - T.: Movarounnahr. Tafakkur. 2010.
74. Firdavsiy. Shohnoma. Shayx Muhammad Yusuf. Ixtiloflar, sabablar, yechimlar. - T.: Sharq. 2011.
75. Shayx Muhammad Yusuf. Fikh yo'nalishlari va kitoblar. - T.: Sharq. 2011.
76. Alimov U. Imom al-Buxoriy barhayot. - T., 2011.
77. Ma'naviy va diniy yetuklik davr talabi. - T., 2010.
78. Ermatov H. Nobel mukofoti sovrindorlari. - T., 2011.
79. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Ma'rifat, 2009.
80. Zamonov A. Buxoro xonligi harbiy boshqaruv tizimi (Shayboniylar sulolasi davrida). –Toshkent: Bayoz, 2017.


**Internet saytlari**

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.fvat.uz.
5. www.mirknig.ru.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIKKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

"KELISHILDI"
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
__________ R.Mamajanov
"03" ____XI____ 2023 yil

"TASDIQLAYMAN"
DTPI rektori
Prof.__________ G'.X.Raximov
"03" ____XI____ 2023 yil

07.00.01 – O'ZBEKISTON TARIXI IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS IXTISOSLIK FANLARIDAN

# DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Denov-2023

## Annotatsiya:

Ushbu dastur 07.00.01 – O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha tanyach doktoranturaga kirish bo‘yicha ishlab chiqilgan bo‘lib, unda talabgorlar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan asosiy talablar bayon qilingan.

**TUZUVCHILAR:**

| | | |
|---|---|---|
| Yaqubova D.T. | | DTPI, Tarix va falsafa kafedrasi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |
| Nazirov B.S. | - | DTPI, Tarix va falsafa kafedrasi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |
| Mengliboyev A.X. | - | DTPI, Tarix va falsafa kafedrasi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |


Dastur Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetining 2023-yil oktabrdagi №3-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.



## KIRISH

Har qaysi mamlakat, har bir xalq o‘zining uzoq va betakror tarixiga ega bo‘lganidek, O‘zbekistonning, o‘zbek xalqining tarixi ham boy va sermazmundir. Qadim zamonlardayoq Turon, Turkiston deb e’tirof etilgan ona Vatanimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga ko‘ra Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori dunyoda mashhurdir. Vatanimiz jahon tarixining turli xalqlar, sivilizatsiyalar tutashgan eng qaynoq chorrahalaridan biri sifatida butun insoniyat tarixining borishiga ma’lum darajada ta’sir etib bordi. Shu bilan birga ajdodlarimiz hayotiga boshqa xalqlar, sivilizatsiyalarning ham ta’siri bo‘ldi. Ming yillar davomida o‘zbek xalqining fors, hind, yunon, arab, rus va boshqa xalqlar bilan ma’lum darajada aralashuvi sodir bo‘lgan, ularning madaniyati, fani, san’ati va umuman turmush tarzi birbiridan bahra olgan, mushtaraklashgan.

O‘zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O‘zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo‘lib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga ko‘tarilgani jahonga ma’lum.

Vatanimiz tarixi o‘zbek xalqining jahon tarixi va madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo‘shganligidan guvohlik beradi. Buyuk bobolarimiz – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad inb Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, AmirTemur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa yuzlab allomalarimiz bilan nafaqat o‘zbeklar, balki butun turk dunyosi, qolaversa, butun yer yuzi xalqlari faxrlanadilar.

Ajdodlarimiz barpo etgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi ko‘hna shaharlar bugungi kunda jahon miqyosidagi ziyoratgohga aylangan. O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy davlat va jamoat arboblari, ziyoratchilar bu shaharlarni, ulardagi ajoyib tarixiy, milliy me’morchilik majmualari va yodgorliklarni ko‘rib, ularda mujassamlashgan xalq ustalarining iste’dodi va yuksak badiiy mahoratiga qoyil qolib, ularga tahsinlar o‘qimoqdalar. Muqaddas yerimiz orqali o‘tgan Buyuk ipak yo‘li Osiyo va Yevropadagi xalqlar va mamlakatlarni bir-biriga bog‘lab turgan, xalqaro hamkorlikka xizmat qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, tub iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy hayot borasida yangilanishlar amalga oshirilishi bois mamlakatimiz XXI asrga zamonaviy rivojlanish konsepsiyasi bilan qadam qo‘ydi. Barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi masalasiga esa, davlat siyosati nuqtai nazari bilan yondashib, jahon andozalariga mos ravishda tarix fanini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston tarixining yaxlit konsepsiyasini yaratish, buni amalga oshirish uchun bir butun tarixiy jarayonni nisbatan mustakil bo‘lgan bo‘laklarga, yani davlarga bo‘lish va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Asosiy vazifalardan yana biri – yangi yozilgan tarixni o‘rganishni taxlil qilishdir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori tarix fanini mazmuni mutlaqo yangilanib, xalqimizning ko'hna tarixiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv davrida xalqimiz ma'naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilishda Vatan tarixini har tomonlama chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib kelajak avlodga haqiqiy tariximizni o'qitish orqali ularni yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dastur hozirgi bosqichda O'zbekiston tarixi fanining dolzarb muammolari, xalqimizning yeng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi arafasida yuzaga kelgan murakkab vaziyat, respublika mustaqilligining e'lon qilinishi, mustaqillik yillarida mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalardagi islohotlar va ularning bosqichlarini, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini, xalqaro munosabatlar, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar tashqi siyosat kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Dastur 07.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar bilim darajasini sinashga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» PF-4958-son Farmoniga asosan barcha mutaxassislik bo'yicha imtihonlar oldiga qo'yilgan maqsad – 07.00.01–O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilarning Vatanimiz o'tmishi va hozirgi davr tarixini qanchalik chuqur egallagani, uning ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy bilim doiralarining kengligi, mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga nechog'lik tayyorligini aniqlashdan iborat.

07.00.01–O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun "O'zbekiston tarixi" fanidan imtixon "Yozma ish" usulida o'tkaziladi.

"Yozma ish" usuli 07.00.01–O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilardan:

- Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekiston hududida ilk sivilizatsiya bosqichlaridan boshlab, ajdodlarimiz yaratgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, jamiyat va uning boshqaruv tamoyillaridan xabardorligi;
- tarixiy davrlarda jamiyat va uning ijtimoiy qatlamlari, ular o'rtasidagi mulkiy va huquqiy munosabatlar, ma'muriy boshqaruvning shakllanishi va takomili masalalarini yorita bilish;
- ajdodlarimiz yaratgan davlatchilik an'analarining turli xronologik bosqichlari va ko'rinishlaridan qat'iy nazar bir butun yaxlit o'zbek davlatchiligining tadrixiyligi davomiyligidan iborat ekanligini ko'rsata bilish;
- hududimizda ming yillar davomida shakllangan, bir necha bosqichdan iborat etnik jarayonlarni xolis yoritish va o'zbek xalqi shakllanishini ilmiy asoslab berish;
- tarixiy jarayonlardagi taraqqiyot va inqirozlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sabablari va oqibatlarini ochib bera olish;



- Vatan tushunchasining keng ma'nosi, hozirgi O'zbekiston hududidan tashqari kengroq mintaqaviy yerlarning, ya'ni butun Markaziy Osiyo, Xurosonning tarixiy madaniy mintaqa sifatida umumiy Vatanimiz ekanligini asoslash;
- davlatchilik tarixidagi ijtimoiy institutlarning yuzaga kelishi qonuniyatlari turli bosqichlarda shaxs, jamiyat, davlatga oqilona va adolatli rahbarlik qilishning o'rnini tushuntira bilish;
- tarixiy bosqichlarda ruy bergan ichki iqtisodiy, siyosiy va harbiy munosabatlarni yoritib berish;
- tarixiy jarayonlar davomida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy, madaniy va ma'rifiy ehtiyojlarning uzviy bog'liqligi, har bir bosqichning o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra shakllangan ma'naviy, mafkuraviy tizim bo'lishi lozimligini ko'rsata bilish;
- tarixiy bosqichlarda yuz bergan tanazzul, parokandalik va davlat boshqaruvidagi nuqsonlar va oxir-oqibat salbiy holatlarni vujudga kelganligini yorita bilish va xulosalar chiqara olish;
- istiqlol davri davlatchilik tariximizdagi yangi bosqich ekanligini, hozirgi zamon hamjamiyatida O'zbekistonning tutgan mavqeini aniq idrok eta olish; - o'zbek dalatchiligi tarixi borasidagi bilimlardan ma'naviy hayotimiz, davlatimizning ichki va tashqi munosabatlar doirasida amalda foydalana bilish masalasini yorita bilish;
- O'zbekiston tarixiga oid adabiyotlar bilan tanishligi, ular yordamida erkin fikr yurita bilish;
- O'zbekiston tarixining eng muhim manbalari haqida tasavvur va bilimlarga ega bo'lish, ulardan yozma ishda foydalana olish kabilar talab etiladi.

“O‘zbekiston tarixi” fanidan o‘tkaziladigan
“Yozma ish” usulini

**BAHOLASH MEZONI**

“O‘zbekiston tarixi” fani bo‘yicha o‘tkaziladigan “Yozma ish” ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variantda 5 tadan savol bo‘lib, har bir savolga tegishli javob yoziladi.

“Yozma ish” variantlarining birinchi savoli O‘zbekistonning qadimiy tarixidan to ilk o‘rta asrlargacha bo‘lgan davrlarni qamrab oladi. Ya’ni, har bir variantda ushbu oraliq davr bo‘yicha bittadan savol bo‘ladi.

“Yozma ish” variantlarining ikkinchi savoli Ilk o‘rta asrlardan to Amir Temur va temuriylar saltanatining inqirozigacha bo‘lgan davrlarni qamrab oladi. Ya’ni, har bir variantda ushbu oraliq davr bo‘yicha bittadan savol bo‘ladi.

“Yozma ish” variantlarining uchinchi savoli O‘zbekiston tarixida alohida o‘ringa ega bo‘lgan Shayboniylar davlatining tashkil topishidan boshlab to Chor Rossiyasi bosqiniga qadar bo‘lgan oid oraliq savollarini qamrab oladi.

“Yozma ish” variantlarining to’rtinchi savoli Chor Rossiyasi bosqinindan to O‘zbekistonning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan davrgacha bo‘lgan oraliq savollarini qamrab oladi.

“Yozma ish” variantlarining beshinchi savoli O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan davrdan boshlab, o‘ttiz bir yillik oralig‘idagi rivojlanish va o‘zgarishlar tarixini qamrab oladi (1991-2022 yillar).

“Yozma ish” variantlarida keltirilgan har bir savol to‘g‘ri va to‘liq yozilishi, ya’ni tarixiy jarayonlar, voqea-hodisalar mazmuni, mohiyati, sabablari, natijalari izchil yoritilishi, tarixiy atamalar va shaxslarning nomi to‘g‘ri yozilishi, ijodiy yondashish va javobda mantiqiy yaxlitlikka erishish, baholash uchun asos bo‘lib hizmat qiladi.

“Yozma ish”ni bajarishda quyidagilarga amal qilinadi:

- “Yozma ish”larni o‘tkazish uchun, institut rektorining buyrug‘i bilan komissiya tashkil etiladi;
- “Yozma ish”ning hajmi 1000-1200 so‘zgacha deb belgilanadi. “Yozma ish” ni o‘tkazish uchun 3 soat vaqt beriladi.

“O‘zbekiston tarixi” fanidan imtihon bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 dan 100 balgacha baholanadi. Har bir savolga berilgan javob 20 ballgacha baholanadi.

“O‘zbekiston tarixi”dan talabgorlar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:

- berilgan savolga to‘g‘ri va to‘liq javob yozilsa, tarixiy jarayonlar, voqea va hodisalarning mazmuni, mohiyati, sabablari, natijalari to‘g‘ri va izchil yoritilsa, tarixiy atamalar va shaxslarning nomi to‘g‘ri yozilsa, shuningdek ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **90-100 ball** oralig‘ida baholanadi.
- berilgan savolga to‘g‘ri javob yozilsa, tarixiy jarayonlar, voqea va hodisalar mazmuni to‘liq yoritilgan bo‘lsa o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **71-89 ball** oralig‘ida baholanadi.



-berilgan savolga to‘g‘ri javob yozilsa, biroq tarixiy jarayonlar, voqea vahodisalar mazmuni to‘liq yoritilmagan bo‘lsa o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **60-70 ball** oralig‘ida baholanadi.

- berilgan savolga noto‘g‘ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo‘yilgan masalaning mazmuni va mohiyati ochib berilmasa unda o‘zlashtitish ko‘rsatkichi **0-59 ball** oralig‘ida baholanadi.

## “O‘zbekiston tarixi” fanidan “Yozma ish” savollari

### I – blok

**O‘zbekiston tarixining ibtidoiy jamoa tuzumi bosqichidan to ilk o’rta asrlarga qadar bo‘lgan davrlar bo‘yicha**

1. “O‘zbekiston tarixi” fani predmeti va uni o‘rganishning ahamiyati. Tayanch tushunchalar: *(tarixiy xotira, ilmiylik, xolislik, tarixiylik)*.
2. O‘zbekistonda paleolit davri bosqichlari va bu davrga oid topilgan arxeologik yodgorliklar. Tayanch tushunchalar: *(Selung‘ur, Ko‘lbuloq, Teshiktosh, Obirahmat)*.
3. O‘zbekistonda mezolit davri va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Tayanch tushunchalar: *(Machay, Zarautsoy, qoyatosh tasvirlari, o‘q-yoy)*.
4. O‘zbekiston xududida Neolit va Eneolit davri, uning o‘ziga xos xususiyatlari. Tayanch tushunchalar: *(Neolit inqilobi, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik, Joytun, Kaltaminor, Hisor madaniyatlari)*.
5. Vatanimiz hududida Bronza davri va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Tayanch tushunchalar: *(Ota urug‘i, shaharsozlik madaniyati, Jarquton, Uzunqir)*.
6. Davlatchilik tushunchasi. Ilk davlat birlashmalarining vujudga kelishiga ta’sir kursatgan tarixiy shart-sharoitlar. Tayanch tushunchalar: *(Temirning kashf qilinishi, Harbiy demokratiya, Qadimgi Baqtriya, Katta Xorazm)*.
7. Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya - Vatanimiz hududida vujudga kelgan dastlabki davlatlar sifatida. Tayanch tushunchalar: *(Davlatchilik, Jarquton, Afrosiyob, Yerqurg‘on)*.
8. “Avesto” kitobi – Vatanimiz tarixini o‘rganishda muhim manba. Tayanch tushunchalar: *(Yasht, Yasna, Videvdat, Visparat)*
9. Eron Axamoniylariga qarshi O‘rta Osiyo xalqlarining ozodlik harakatlari. Tayanch tushunchalar: *(Kir II, To‘maris, Doro I, Shiroq)*.
10. Yunon-Makedon istilochilarga qarshi O‘rta Osiyo xalqlarining ozodlik harakatlari. *(Spitamen, Ellinlashtirish, Makedoniyalik Iskandar, Sug‘d)*.
11. Yunon–Baqtriya davlatining tashkil topishi va tarakkiyoti. Tayanch tushunchalar: *(Salavkiylar, Diodot, pul islohoti, Yuechji qabilalari)*.
12. Qadimgi Qang‘ va Farg‘ona (Dovon) davlatlari. Tayanch tushunchalar: *(Qang‘dez-Bityan, Saklar, Xitoy yilnomalari, Samoviy otlar, Chjan szyan)*.
13. Kushonlar saltanatining davlatchiligimiz tarixida tutgan o‘rni. Tayanch tushunchalar: *(Yuechjilar, Kudzula Kadfiz, Kanishka, Buddizm, Buyuk ipak yo‘li)*.
14. Buyuk ipak yo‘lining Vatanimiz tarixida tutgan o‘rni. Tayanch tushunchalar: *(Qadimgi lal yo‘li, shoh yo‘li, ipak, savdo ayriboshlash, madaniy yuksalish)*.

15. Amir Temur va Temuriylar davrida Buyuk Ipak yo'li mavqeining yuksalishi. Tayanch tushunchalar: *(A.Temur mohir diplomat, Yevropa va Osiyoning yagona iqtisodiy makoni ekanligi, Temur tuzuklari).*

## II blok

## O'zbekistonning ilk o'rta asrlar davridan Amir Temur va Temuriylar davlati inqiroziga qadar bo'lgan davr bo'yicha

1. Ilk o'rta asr yerga egalik (feodal) munosabatlarining vujudga kelishi. Tayanch tushunchalar: *(eftaliylar, xioniylar, kidariylar, dehqonlar).*

2. Xioniylar, Kidariylar va Eftaliylar davlati va hukmronligi. Tayanch tushunchalar: *(Eftalon, yerga egalik munosabatlari, kadivarlar va kashshofarzlar Ilk o'rta asrlar, yerga egalik munosabatlari, sosoniylarga qarshi kurash).*

3. Turk xoqonligi hukmronligi davrida O'rta Osiyoda ijtimoiy- siyosiy hayot. Tayanch tushunchalar: *(G'arbiy turk hoqonligi, Ashin urug'i, Turkiston, Sheguy xoqon).*

4. Arab istilosiga qarshi xalq ozodlik harakatlari. Tayanch tushunchalar: *(Gurak va Devashtich qo'zg'oloni, Oq kiyimlilar qo'zg'oloni, Islom dini, Arab xalifaligi).*

5. IX-XII asrlarda ijod qilgan Markaziy Osiyolik allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi. Tayanch tushunchalar: *(Ma'naviyat, ilm-fan, tarixiy shart-sharoit, renesans).*

6. Somoniylar davlati-O'rta Osiyoda tashkil topgan birinchi markazlashgan davlat. Tayanch tushunchalar: *(Movarounnahr, Xuroson, Ismoil Somoniy, Markazlashgan davlat).*

7. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi. Tayanch tushunchalar: *(Yag'mo, Chig'il, Qarluq, Bug'roxon).*

8. Xorazmshoxlar saltanati va uning yuksalishi. Tayanch tushunchalar: *(Anushteginilar, Sulton Muhammad, Ikkinchi Iskandar, saljuqiylar).*

9. O'rta Osiyoda islom madaniyatining tarkib topishi. Imom al-Buxoriy, at-Termiziy va boshqalar. Tayanch tushunchalar: *(Islom, ma'naviyat, hadis, komil inson).*

10. IX-XII asrlarda me'morchilik, qurilish san'atining rivoji. Tayanch tushunchalar: *(Samarqand, Buxoro, Somoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar).*

11. Mug'ullar istilosi va hukmronligiga qarshi ozodlik harakatlari. Tayanch tushunchalar: *(Mahmud Tarobiy, Najmiddin Kubro, Mug'ul istilosi, Jaloliddin Manguberdi, O'tror voqeasi, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Chig'atoy ulusi).*

12. Chig'atoy ulusi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Tayanch tushunchalar: *(Siyosiy tanglik, Movarounnahr, Qozonxon, siyosiy boshboshdoqlik).*

13. Amir Temurning xokimiyat tepasiga kelishi va uning harbiy yurishlari. Tayanch tushunchalar: *(Markazlashgan davlat, 3,5,7 yillik urushlar)*

14. Temuriylar davrida Movarounnaxrdagi siyosiy vaziyat. Temuriylar davlatining inqirozga yuz tutish sabablari va oqibatlari. Tayanch tushunchalar:



*(Shohrux, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, o'zaro kurash, O'zaro kurashlar, siyosiy notinchlik, Mirzo Bobur, inqiroz ).*

15. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat. Tayanch tushunchalar: *(Ulug'bek akademiyasi, arxitektura, hattotlik, tasviriy san'at, Muhrdor, bosh vazir, Husayn Boyqaro, G'azal mulkining sultoni).*

## III- blok

## O'zbekiston tarixining Shayboniylar hukmronligi o'rnatilgan davrdan to Chor Rossiyasi bosqiniga qadar.

1. Shayboniylar tomonidan Temuriylar saltanatining bosib olinishi. Tayanch tushunchalar: *(Ko'chmanchi o'zbeklar davlati, Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, Buxoro xonligi).*

2. Shayboniylar sulolasining hukmronligi davrida Movarounnahr. Tayanch tushunchalar: *(Yurt obodonchiligi, Abdullaxon II, Markazlashgan davlat qurishga urinishlar, siyosiy kurash).*

4. O'rta Osiyoda Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Tayanch tushunchalar: *(Jonibek Sulton, shayboniylar, Ashtarxon-Astraxan xonligi, siyosiy inqiroz, Buxoro xonligi).*

5. Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligi. Tayanch tushunchalar: *(Nodirshoh, Muhammad Rahim, Amirlik, Olimxon).*

6. Xiva xonligining vujudga kelishi. Shayboniylar sulolasi davrida Xiva xonligi. Tayanch tushunchalar: *(Xorazm, Elbarsxon, Ko'chmanchi o'zbeklar, Qo'ng'irotlar).*

7. Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi davrida Xiva xonligi. Tayanch tushunchalar: *(XVIII asrning 2-yarmi, siyosiy inqiroz, mahalliy qo'ng'irotlar, XX asr).*

8. Qo'qon xonligining tashkil topishi va siyosiy jarayonlar. Tayanch tushunchalar: (Ashtarxoniylar davridagi siyosiy inqiroz, Farg'ona vodiysi, Minglar, siyosiy inqroz).

9. Qo'qonda Minglar sulolasi. Tayanch tushunchalar: *(1709 yil, Chodak qishlog'i, Qo'qon, minglar sulolasi).*

10. XVI-XVIII asrlarda o'zbek xonliklarining o'zaro munosabatlari. Tayanch tushunchalar: *(Buxoro xonligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, o'zaro hamda ichki ziddiyatlar).*

11. XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Chor Rossiyasining o'zbek xonliklari bilan o'zaro munosabatlari. Tayanch tushunchalar: *(Bekovich Cherkaskiy ekspeditsiyasi, Pyotr I, savdo-iqtisodiy aloqalar, xom-ashyo o'lkasi).*

12. Rossiya va Angliyaning O'rta Osiyo uchun olib borgan o'zaro kurashi. Tayanch tushunchalar: *(Siyosiy tanglik, Buxoro amirligi, Antoni Jenkenson, mustamlakachilik).*

13. XVI-XIX asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida tarixnavislik rivoji. Tayanch tushunchalar: *(Shayboniynoma, Abdullanoma, Shajarai turk, Ubaydullanoma va bosh.)*

14. XVI-XIX asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida adabiyot va san'an rivoji. Tayanch tushunchalar: *(Bedil, Sayido Nasafiy, Sufi Ollayor, Gulxaniy, Mashrab, Ahmad Donish.)*

15. XVI-XIX asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida me'morchilik rivoji. Tayanch tushunchalar: *(Mir Arab, Registon, Labi hovuz, Ichanqal'a.)*

## IV- blok

**Chor Rossiyasi bosqinidan to O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo'lgan davr.**

1. Chor Rossiyasi tomonidan Toshkentning bosib olinishi. Tayanch tushunchalar: *(mustamlakachilik, xom-ashyo bazasi, Turkiston bozorlarini egallash, Turkiston general-gubernatorligi Chernyaev, Niyozbek, suv to'g'on qal'asi, xoinlik).*

2. Turkiston general–gubernatorligining tashkil etilishi. Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakachilik boshqaruv tizimi. Tayanch tushunchalar: *(Mustamlakachilik, mustamlakachilik boshqaruvi, Toshkent, Fon Kaufman, ruslashtirish, mustamlakachilik, iqtisodiy manfaat, Turkiston general-gubernatorligi).*

3. Chor mustamlakachiligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlar. Tayanch tushunchalar: *(Mustamlakachilik, norozilik, vabo, ozodlik, ozodlik, Andijon, Turkiston general-gubernatorligi, qo'zg'olonchilarning jazolanishi).*

4. Turkistonda jadidchilik harakati, jadidlarning ijtimoiy va siyosiy qarashlari. Tayanch tushunchalar: *(Ismoil Gaspirali, yangi usul, hurfikrlilik, ma'naviyat).*

5. XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi ijtimoiy–siyosiy vaziyat. "Yosh buxoroliklar". Tayanch tushunchalar: *(Davr talabi, jadidlar, demokratiya, Buxoro xalq sovet respublikasi, davr talabi, jadidlar, demokratiya, Xorazm xalq sovet respublikasi).*

6. Birinchi jahon urushi va uning Turkistonga ta'siri. Tayanch tushunchalar: *(Siyosiyiqtisodiy tanglik, Jizzax qo'zg'oloni, ozodlik, mustamlakachilik).*

7. Turkistonda 1916 - yilgi xalq qo'zg'olonlari va uning tarixiy ahamiyati. Tayanch tushunchalar: *(Mustamlakachilik, ozodlik, mardikorchilikka qarshi kurash, Jizzax).*

8. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi va ma'muriy buyruqbozlik tizimining qaror topishi. Tayanch tushunchalar: *(Oktabr to'ntarilishi Xom-ashyo yetkazib beruvchi o'lka, biryoqlama iqtisodiyot, ikkilamchi darajadagi davlat, O'zbekiston iqtisodiyotining "markaz" manfaatlariga buysundirilishi).*

9. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi va ma'muriy buyruqbozlik tizimining qaror topishi. Tayanch tushunchalar: *(Oktabr to'ntarilishi, bolshevizm g'oyasi, TASSR, BXSR, XXSRlarining tuzilishi).*

10. "Turkiston muxtoriyati"ning tashkil etilishi. Sovet hokimiyatining unga munosabati. Qo'qon fojeasi. Tayanch tushunchalar: *(IV o'lka musulmonlarining qurultoyi, 72 kun, Turkiston muhtoriyati, Qo'qon o'liklar shahri).*



11. Turkistonda istiqlolchilik harakatining boshlanishi, uning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari. (XX asrning 20-30 yillarida). Tayanch tushunchalar: *(Istiqlolchilik, bolsheviklar, Madaminbek, Kichik Ergash, katta Ergash qo'rboshilar).*

12. XX asrning 20-30 yillarida O'zbekistonda xalq xo'jaigida amalga oshirilgan islohotlar. Tayanch tushunchalar: *(Yer-suv islohoti, Xom-ashyo yetkazib beruvchi o'lka, biryoqlama iqtisodiyot, ikkilamchi darajadagi davlat, O'zbekiston iqtisodiyotining "markaz" manfaatlariga buysundirilishi).*

13. XX asrning 20-30 yillarida o'tkazilgan qatog'on siyosati. Tayanch tushunchalar: *(18 lar guruhi, Inog'omovchilik, Milliy istiqlolchilar, Narkompros ishi, ziyolilarning qatog'on qilinishi).*

14. O'zbek xalqining ikkinchi jahon urushi yillarida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi. Tayanch tushunchalar: *(Mehnat jasorati, jangovor jasorat, fashizmga qarshi kurash, 1941-1945 yillar).*

15. "Qayta qurish" yillarida O'zbekiston. Tayanch tushunchalar: *(Qayta qurish, mustaqillik sari ilk qadamlar, Islom Karimov, shaxs va tarix).*

## V Blok

**O'zbekiston mustaqillik va ma'naviy yuksalish (1991 – 2022) yillarida**

1. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va uning mustahkamlanishi. O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlarining qabul qilinishi. Tayanch tushunchalar: *(Istiqlol, Islom Karimov, Gerb, bayroq, madhiya, milliy valyuta).*

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va ahamiyati. Tayanch tushunchalar: *(Demokratiya, ozodlik, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar).*

3. O'zbekistonda mustaqil hokimiyat organlarining shakllanishi. Tayanch tushunchalar: *(Oliy Majlis, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari,).*

4. O'zbekistonda siyosiy partiyalar. Jamiyatda ko'p partiyaviy tizimining qaror topishi. Demokratik saylov tizimining qaror topishi. Tayanch tushunchalar: *(Huquqiy davlat, siyosiy ong, adolatlilik, plyuralizm, demokratik saylovlar, xalq xoxish irodasi, oliy maqsadlar, asrlarga teng taraqqiyot).*

5. O'zbekistonda mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlar va ularning mazmuni. Tayanch tushunchalar: *(Bozor munosabatlari, davlat bosh islohotchi, xususiylashtirish, kichik va o'rta beznes).*

6. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning ahamiyati. Tayanch tushunchalar: *(Demografik siyosat, milliy model, islohot-islohot uchun emas balki inson uchun, bozor iqtisodiyoti).*

7. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning g'oyasining mazmuni. Tayanch tushunchalar: *(Demokratiya, vijdon erkinligi, O'zbekiston – ko'p millatli davlat, do'stlik va tolerantlik).*

8. O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. Tayanch tushunchalar: *(Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan*

*islohotlar test tizimining joriy qilinishi, 2 bosqichli oliy ta'lim, uzluksiz ta'limning joriy qilinishi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi qonun).*

9. O'zbekistonda mustaqillik yillarida madaniy hayot. Tayanch tushunchalar: *(ma'naviy merosni qayta tiklanishi, muzeylar faoliyati, kino va teatr san'ati rivoji, adabiyot va musiqa san'ati rivoji)*

10. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va Xalqaro tashkilotlar a'zoligiga qo'shilishi ga qabul qilinishi. Tayanch tushunchalar: *(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya, Tinchliksevar tashqi siyosat tamoyillari, Milliy davlat manfaatlari, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik BMT, YeXHT)*

11. Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar. Tayanch tushunchalar: *(Oliy Majlis rolini oshirish, "Yelektron hukumat" tizimi, Xalq bilin muloqot, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mahalla instituti, OAV larning rolini kuchaytirish.)*

12. Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar. Tayanch tushunchalar: *(Qonun ustuvorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari, sud hokimiyatining mustaqilligini, sud tizimini demokratlashtirish, Sudyalar oliy kengashi.)*

13. Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar. Tayanch tushunchalar: *(iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari, xususiy mulk huquqi, "Har bir oila - tadbirkor", "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili".)*

14. Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar. Tayanch tushunchalar: (*Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar va ularning natijalari. Fan va ta'lim sohasidagi islohotlar. Maktabgacha ta'lim sohasini isloh qilish maqsadida besh yillik alohida dastur.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbe-kiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga oid qaror va Farmonlari*)

15. Harakatlar strategiyasida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar. Tayanch tushunchalar: (*O'zbekistonning tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish. O'zbekiston-Qirg'iziston, O'zbekiston-Qozog'iston, O'zbekiston-Turkmaniston, O'zbekiston-Tojikiston munosabatlari, Davlat chegarasini dimilitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari, O'zbekistonda YeXHT faoliyati. O'zbekistonning ShHT bilan hamkorligi.*)



**"O'zbekiston tarixi" fanidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

**Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir A.S.Sagdullayev.I va II qismlar. – Toshkent, 2019.
2. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. I - II jild. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
3. O'zbekistonning yangi tarixi. 1, 2, 3-kitoblar. T.: Sharq, 2000.
4. Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
5. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 1-3-tom. Mas'ul muxarrirlar: R.Abdullaev, Q.Rajabov, M. Raximov.-Toshkent: O'zbekiston, 2019
6. Ziyoev X. O'zbekistonning mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. T.,2000.
7. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T., 2000.
8. Istoriya Uzbekistana. - T.: Fan, 2012.
9. Leonid Levitin. Uzbekitan on a historical Threashold. England. Cambridge. 2001

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. –Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. T.: «O'zbekiston» 2016.
5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. T. 1.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent. O'zbekiston, 2011.
9. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T., O'zbekiston. 2015.
10. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T., 2004.

11.Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.
12.Tarix shohidligi va saboqlari: chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtirilishi. \ Loyiha rahbari, mas'ul muharrir: D.A.Alimova. – T.: Sharq, 2001.
13.Murtazaeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. –Toshkent: Universtitet, 2007.
14.O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. 13-jildlik. T.: O'zME, 2000-2006.
15.O'zbekiston tarixi. T.: Universitet, 1997.
16.O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Mas'ul muharrir M.Jo'raev. – T.: Sharq. 2000.
17.O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Mas'ul muharrir M.Jo'raev. – T.: Sharq. 2000.
18.Ziyoev X. O'zbekistonning mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. T., 2000.
19.Ziyoev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., 1998.
20.Abduraxmon Tole. Abulfayzxon tarixi. T.: Fan, 1959.
21.Abduxoliq Abdurasul o'g'li. Chin va Mochin. – T.: Fan, 2006.
22.Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiy. Buxoro tarixi T.: Kamalak, 1995.
23.Abu Rayhon Beruniy qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlanma asarlar I jild, T.: Fan, 1968.
24.Abu Rayxon Beruniy. Hindiston. 2-jild.-T., 1965.
25.Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - T., 1993.
26.Abulg'ozi. Shajarai turk. T.: Cho'lpon, 1990.
27.Avesto / Asqar Maxkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001.
28.Askarov A. Eng qadimgi shahar. - T., 2001.
29.Askarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. - T., 2007.
30.Ahmad ibn Mahmud Buxoriy. Tarixi Mullozoda / So'z boshi, fors tilidan tarjima, izohlar mualliflari Sh.Vohidov, B.Aminov. – T.: Yangi asr avlodi. 2009.
31.Axmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari. - T.: O'qituvchi, 2001.
32.Axmedov B.A. O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. - T., 2003.
33.Axmadjonov Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda. T., 2003
34.Ismoilova J. Farg'ona vodiysida milliy ozodlik kurashlari. T., 2003.
35.Bunyodov Z.M. Anushtegin-Xorazmshohlar davlati. - T., 1998.
36.Gaspirinskiy I. Hayot va mamot masalasi. –T.: Ma'naviyat, 2006.
37.Gumilev L.N. Qadimgi turklar. -T., 2007.
38.Dadaboev H. Amir Temurning harbiy mahorati. - T.,1996.
39.Yormatov I. Iloq tarixi. - T., 2005.



40.Jabborov I. O'zbeklar. – Toshkent, Sharq. 2008.
41.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - T., 1964.
42.Ziyoev H.Z. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. – T.: Ma'naviyat. 2008.
43.Zohidov V. Uch daho (Farobiy, Beruniy, Ibn Sino). - T., 1987.
44.Ibn Arabshoh. «Amir Temur tarixi». - T.: Mehnat, 1992.
45.Ismoil Aka. Buyuk Temur davlati.- T., 1996.
46.Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. - T., 1999.
47.Maxmud Qoshg'ariy. Devoni lo'g'oti turk. 1-3 jildlar. -T.: Fan, 1960-1963.
48.Ma'naviyat yulduzlari. - T., 2001.
49.Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. - T., 1994.
50.Musaev N.U. O'rta Osiyoda dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlar tarixidan (Tosh davri oxiridan - XX asr boshlariga qadar). – Toshkent: Fan, 2005.
51.Muhammadiyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-bilod. / Fors tilidan tarjima, izohlar mualliflari I. Bekjonov, D. Sangirova. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2009.
52.Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. -T., 1994.
53.Nasaviy. Siyrat as-Sulton Jaloliddin Manguberdi. -T.: 1999.
54.Nizomulmulk. Siyosatnoma. - T.: Adolat, 1997.
55.Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. -T.: O'zbekiston, 1996.
56.Raxmonov N. Turk xoqonligi. - T., 1993.
57.Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev Ye.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. - T., 2001.
58.Sulaymonova F. Sharq va g'arb. - T.: Fan, 1991.
59.Temur tuzuklari. -T.: 1991, 1996.
60.Temur va Ulug'bek davri tarixi. -T.: 1996.
61.Xondamir. Habib us-siyar. -T.: 1941.
62.Shamsuddinov R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari. -T., 2001.
63.Sharafiddin Ali Yazdiy. «Zafarnoma». - T.: Sharq. 1997.
64.Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. - T., 2001.
65.O'zbekiston tarixining eng asosiy sanalari. - T., 2006.
66.G'afforov Sh.S. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar. -T., 2006.
67.Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. I-II jild. T.: Sharq, 1999-2000.
68.Isaev Y. Abu Ali ibn Sino. - T.: Tafakkur. 2010.
69.To'raev B. Abu Rayhon Beruniy. - T.: Tafakkur. 2010.
70.Boboev S. Ahmad Farg'oniy. - T.: Tafakkur. 2010.